

UO‘K: 338.48.2(575.5)

QASHQADARYO MINTAQASIDA ZIYORAT TURIZMNING IJTIMOIIY - IQTISODIY AHAMIYATI VA O‘RNI

Uzoqov Jamshid Norboyevich- mustaqil izlanuvchi, E-mail: jamshiduzokov0660@gmail.com

Qarshi mihandislik-iqtisodiyot instituti, Qarshi sh., O‘zbekiston

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada ziyorat turizmni rivojlantirish omillari yoritilgan hamda ichki, tashqiy, diniy, dunyoviy ziyoratlarning ijtimoiy- iqtisodiy ahamiyati va o‘rni ochib berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** ziyorat, ichki ziyorat, tashkiy ziyorat, diniy ziyorat, dunyoviy ziyorat*

УДК: 338.48.2(575.5)

СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ И РОЛЬ ПАЛОМНИЧЕСКОГО ТУРИЗМА В КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

Узоков Жамшид Норбоевич- самостоятельный соискатель, E-mail: jamshiduzokov0660@gmail.com

Каршинский инженерно-экономический институт, г. Карши, Узбекистан

***Аннотация.** В данной статье освещаются факторы развития паломнического туризма и раскрывается социально-экономическое значение и роль внутреннего, внешнего, религиозного и светского паломничества.*

***Ключевые слова:** паломничество, внутреннее паломничество, внешнее паломничество, религиозное паломничество, светское паломничество.*

UDC: 338.48.2(575.5)

THE SOCIAL-ECONOMIC SIGNIFICANCE AND PLACE OF PILGRIMAGE TOURISM IN THE KASHKADARYA REGION

Uzokov Jamshid Norboyevich - independent researcher, E-mail: jamshiduzokov0660@gmail.com

Karshi Engineering-Economics Institute, Karshi city, Uzbekistan

***Abstract.** This article highlights the factors of the development of pilgrimage tourism and reveals the socio-economic importance and role of internal, external, religious and secular pilgrimages.*

***Keywords:** pilgrimage, internal pilgrimage, external pilgrimage, religious pilgrimage, secular pilgrimage.*

Kirish

Jahon iqtisodiy-ijtimoiy hayotida ziyorat turizm tarmog‘i muhim o‘rinni egallab kelmoqda. Uning dunyo miqyosidagi o‘rni va roli yildan-yilga o‘sib borayotgan bo‘lib, bugun ushbu soha dunyo aholisining ko‘plab qismini o‘z doirasiga birlashtirdi. Butunjahon turizm tashkiloti (BTT)ning ma‘lumotlariga ko‘ra, “1950-yilda xalqaro turistlar soni 25 million, 1980-yilda 278 million, 1995-yilda 528 million va 2017-yilda 1 milliard 400 million kishini tashkil etgan va bu ko‘rsatkich 2030-yilga kelib 1 milliard 800 million kishiga yetishi bashorat qilinmoqda” [1]. Ushbu ko‘rsatkichning mamlakatimizda ham jadal o‘sishi ko‘zda tutilgan. Bugungi kunda ziyorat turizm sohasining rivojlanishi davlatimiz rahbari tomonidan olib borilayotgan institutsional islohotlar muhim ahamiyatga ega. Xususan, mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2023-yil 29-mart kuni O‘zbekiston ziyorat turizm salohiyatini oshirish masalalari muhokamasi yuzasidan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi.

Yuqoridagi holatlardan kelib chiqib, O‘zbekistonda hozirgi kunda ziyorat turizm salohiyatini oshirish, undan samarali foydalanish va rivojlantirish muammolari bo‘yicha nazariy va amaliy masalalarni tadqiq etishga ehtiyoj yanada kuchaymoqda. Koronavirus pandemiyasining ziyorat turizm sohasi, uning salohiyati va resurslariga ta’siri sharoitida bunday ilmiy izlanishlar yetarli emasligi ham ushbu sohada ilmiy tadqiqotlar zaruratidan dalolat beradi. So‘nggi yillarda O‘zbekiston ziyorat turizm sohasini jadal rivojlantirish va uni iqtisodiyotning yetakchi sohalaridan biriga aylantirish yo‘lidan bormoqda, bu esa mamlakatning iqtisodiy o‘shini ta‘minlash va jahon hamjamiyatidagi nufuzini oshirishdagi ahamiyati bilan bog‘liq.

Shu bilan birga mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2022-2026-yillarda Yangi O‘zbekiston taraqqiyot Strategiyasida ziyorat turizm sohasini rivojlantirishning ustuvor maqsadlaridan biri sifatida, “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qiling” dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazish vazifasini qo‘ydi [2]. Bundan tashqari, mamlakatimiz iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta‘minlashning hozirgi sharoitlarida ziyorat turizm sohasining investitsion jozibadorligini oshirish, davlat va xususiy biznesning sheriklik mexanizmidan foydalangan holda turizm salohiyati rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shularni e‘tiborga olganda, mazkur tadqiqotning dolzarbligi, ayniqsa, respublikamiz ziyorat turizm sektori koronavirus pandemiyasidan so‘ng o‘zining yangi rivojlanish bosqichini boshlagan, ziyorat turizm salohiyatidan samarali foydalanishni ta‘minlayotgan hozirgi sharoitda shubhasiz, Yangi O‘zbekistonda ziyorat turizm salohiyatini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish zarurati bilan bog‘liq hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. O‘zbekistonda turizmning salohiyatli va istiqbolli turlaridan biri ziyorat turizmi hisoblanadi. Uning o‘ziga xos xususiyati komil insonni ham jismoniy, ham ma‘naviy jihatdan shakllantirishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi bilan bog‘liq. Bugungi kunda jahondagi turistik obyektlarning 90 foizidan dan ortig‘i bevosita yoki bilvosita sig‘inish yoki din bilan aloqador. Ushbu strategik vazifani muvaffaqiyatli bajarish uchun xorijda sinalgan va turizm sohasini hududiy jihatdan samarali tashkil etish va xizmat ko‘rsatuvchi subyektlarining qo‘shilgan qiymat zanjiri bilan bog‘lanishini ta‘minlashga qodir bo‘lgan klaster yondashuvida ziyorat turizmini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Turizm salohiyatini rivojlantirish muammosining ayrim yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy-nazariy va amaliy masalalarni ishlab chiqishga A.A.Eshtayev [3], A.M.Abduvohidov [4], M.T.Alimova [5], Ye.V.Golisheva [6], S.Nurmatova [7], S.R.Safayeva [8], B.X.Turayev [9], O.H.Hamidov [10] singari mamlakatimiz olimlari munosib hissa qo‘shdilar.

Mazkur ilmiy ishlarni tavsiflovchi o‘ziga xoslik shundaki, aksariyat mualliflar uning asosiy funksional maqsadi sifatida turizm infratuzilmasi obyektlari va turizm mahsulotiga talabni ta‘minlash nuqtai nazaridan e‘tibor qaratgan va ko‘rib chiqqan holda, turizm salohiyati tushunchasiga turli xil ma‘nolarni kiritadilar. Turizm salohiyatidan foydalanish va rivojlantirishga bag‘ishlangan ko‘plab ishlarga qaramay, turli tavsif, turli inqirozli hodisalar, jumladan, koronavirus pandemiyasi oqibatlari bilan bog‘liq o‘zaro aloqalarini ko‘rsatuvchi jihatlar nuqtai nazaridan ularning yanada rivojlanishiga yondashuvlar, shuningdek, bunday murakkab sharoitlarida turizmning rivojlanishi va uning salohiyatiga ta‘sir etuvchi omillarni modellashtirish mavjud emas, bu esa olib borilayotgan tadqiqotning dolzarbligini asoslab beradi.

Ayni paytda ziyorat turizmning ijtimoiy - iqtisodiy ahamiyati va o‘rni hamda istiqbollari belgilash borasida olib borilayotgan ishlar ham masalaga jiddiy yondashgan holda ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot ishida ziyorat turizmning ijtimoiy - iqtisodiy ahamiyati va o‘rni hamda sohasini rivojlantirishning istiqbollari belgilashda mantiqiy fikrlash, qiyosiyo tahlil, surovnom va iqtisodiy tahlil usullaridan keng foydalanilgan.

Tahlillar va asosiy natijalar

Oxirgi o‘n yilliklarda ziyorat turizm sohasining jahon va milliy iqtisodiyotlarga ta’siri jiddiy ravishda ortib bormoqda. Ziyorat turizm va rekreatsiya sohasining faoliyat yuritishi va shakllanishining o‘ziga xos xususiyatlari uning salohiyati sezilarli darajada sifat va son ko‘rsatkichlari bilan tavsiflanadi.

Ziyorat turizm sohasidagi davlat siyosati mintaqalarni jadal va kompleks rivojlantirish, diversifikatsiya qilish, ularning infratuzilmasini yaxshilash, xalqaro maydonda mamlakat nufuzi va investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, ish o‘rinlarini ko‘paytirish, daromadlarni oshirish, aholining turmush darajasi va sifatini oshirishga qaratilgan. Ziyorat turizm sohasi va uning salohiyatini ustuvor rivojlantirish O‘zbekistonning ziyorat turizm salohiyatini oshirish va undan foydalanish sohasidagi barcha strategik dasturiy hujjatlarida belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasida ushbu sohani rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari, jumladan, ziyorat turizm industriyasini jadal rivojlantirish, uning iqtisodiyotdagi roli va hissasini oshirish, ziyorat turizm xizmatlari sifatini diversifikatsiya qilish va takomillashtirish, turizm infratuzilmasini kengaytirish vazifasi belgilangan.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi ko‘rsatadiki, ziyorat turizmni rivojlantirishning muvaffaqiyati bevosita ushbu sohaning davlat darajasida qanday qabul qilinishiga, davlat ko‘magidan qanchalik bahramand bo‘lishiga bog‘liq. Davlat darajasida turizmga g‘amxo‘rlik qilish turizm xizmatlari eksportini sezilarli darajada oshirish va turizm balansining ijobiy saldosi ta‘minlash imkonini beradi.

Ziyorat turizmni o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash va uni rivojlantirish istiqbollari belgilash maqsadida turizm obyekti sifatidagi “ziyosat” atamasining mohiyati va tabiatini anglab olish lozim. Adabiyotlarda bu atamaning xususiyatlari hali-hanuzgacha yoritilmagan. Maqolada biz mazkur atamaga ziyorat turizmni o‘lkamizda komil insonni shakllantirishga qo‘shadigan hissasi va diversifikatsiyalash imkoniyatlarini qo‘llash nuqtai nazaridan qarab, ta’rif va tavsif beramiz.

“Ziyorat” (arabcha *زيارة* ziyara) so‘zidan olingan bo‘lib “tomoşa qilish”, “ko‘rishga borish (kelish)” ma’nomini bildiradi. Musulmonlarda “ziyosat”- bu payg‘ambarlar qabri, diniy muqaddas joylarni ziyorat qilishdir ¹.

Ziyorat – Islomning turistik asosidir. “Xojagon” ta’limoti asoschisi Xojai Jahon Abuduxoliq G‘ijduvoniyning “Safar dar vatan” ² tariqatiga ³ muvofiq inson o‘z yurtiga safarga chiqib turishi lozim. Ya’ni, vujud ichida turgan holda ruhning moddiylik balchig‘iga botmasligi, haq irodasi moddiy hoyu-havaslarining g‘arazidan xoli ravishda ruhida hukmron bo‘lishi darkor. Bu shuni anglatadiki, yo‘lovchi o‘z safarini yaratilgan tomonidan Yaratgan tomonga amalga oshirishi kerak. A.G‘ijduvoniyni fikricha Vatanga safarning tashqi va ichki turlari mavjud. Birinchisi – bu yer yuzi bo‘ylab Mukammal Yo‘l Boshlovchini izlash uchun harakatlanishdir. Tashqi safar o‘z navbatida ichki safarni amalga oshirishda ko‘maklashadi. Ichki safar jarayonida insondan yomon axloqdan voz kechib xushfe‘llikka harakat qilish talab etiladi, toki inson qalbidan barcha dunyoviy armonlarni chiqarib tashlasin. Natijada, u nopoklik holatidan poklik holatiga ko‘tariladi. Inson qalbini tozalab, kundalik hayotda unga kerak bo‘lgan, asl holatini ifodalaydigan: suvday sof, billurdek shaffof, oyinaday silliq ko‘ngilni yaratadi.

Ichki ziyorat bu insonning o‘z qalbiga ruhiy va ma’naviy safaridir. U Qalbga safar qilish uchun insonga ma’naviy ozuqa kerak bo‘lib turadi. Ichki ziyorat manbalari sifatida Qur’oni karim; Sharif hadislar; buyuk diniy va dunyoviy allomalarning tarbiyaviy xususiyatga ega bo‘lgan adabiy va ilmiy asarlari; ma’naviy yuksak insonlarning pandu nasihatlari; ota-onalar; ustoz o‘g‘itlari, o‘qituvchi va murabbiylar xizmat qiladi.

¹Ziyarat. <http://ru.wikipedia.org/wiki/Ziyarat>.

²Xoja Abuduxoliq G‘ijduvoniyni.

http://naqshband.uz/index.php?option=com_content&view=article&id=50&Itemid=83.

³ Tariqat – bu ahloq-odob qoidalari hamda insonlarni komillikka da’vat etish yullaridir.

Ichki ziyoratning o'ziga xos xususiyati safarni noan'anaviy yo'l bilan bosib o'tishdadir. Insonning o'z ma'naviy barkamollikka erishish yo'lida xilvatda kitoblarni o'qib turish, ma'rifiy-tarbiyaviy tadbirlarda qatnashib saboq olish, ilm o'rganish, bilim olish kabi say-harakatlarni, bizning fikrimizcha, *ichki safar vositalari* qatoriga kiritish mumkin. Shuningdek, ichki ziyorat sajda va duo o'qishda ham o'z ifodasini topadiki, unga ko'ra ziyoratchi ibodat qiladi. U yoki o'z uyidan turib, yoki uyiga yaqin joylashgan masjidga borib, yoki qo'shni-qarindoshlar tomonidan uyushtiriladigan xatmi Qur'on, mavlud, ashurlik, bibi seshanbe va haj oshi, sunnat to'yi kabi diniy marosimlarga qatnashib, ibodat amallarini ijro qiladi. Ichki ziyorat insonning ruhiy kamolotga erishishiga ko'maklashadi.

Tashqi ziyorat esa diniy rasm-rusumlarni bajarish bilan birga amalga oshiradigan insonning turli muqaddas makonlar bo'yicha sayru sayohatidir. U kishining doimiy yashab turgan manzilidan uzoqlashgan holda sajda qilishga asoslangan diniy va/yoki dunyoviy muqaddas joylarga ziyorat qilishini nazarda tutadi. Ziyoratchi muqaddas joy va narsalar oldiga borib sajda qilgan, ularni e'zozlagan holda ziyoratni amalga oshiradi. Ziyoratning tashqi shakli ziyorat turizmining asosi sifatida xizmat qiladi. Chunki, ziyorat sayohati jarayonida ziyoratchilar muqaddas joylarni ziyorat qilish maqsadida safarga chiqadilar. Ziyoratning bu shakli odamlarni ma'naviy va jismoniy kamolotga erishishiga ko'maklashadi. Chunki, insonlar doimiy yashash manzillaridan uzoqlashgan sari o'pkalardagi havo almashtiradilar va buning natijasida sog'liqlari ancha yaxshilanadi. Ular turli-tuman maskanlarga borish-kelish vaqtida xilma-xil odamlar bilan qiziqarli suhbatlarda bo'ladilar, yangi muqaddas joy va narsalar bilan tanishadilar va ulardan ma'naviy ozuqa oladilar, har xil hodisalarga guvoh bo'ladilarki, ularning barisi ziyoratchilarning dunyoqarashini kengaytiradi va barkamollikka erishishga ko'maklashadi.

Diniy ziyorat o'z navbatida islomiy, buddaviylik, xristianlik va boshqa diniy e'tiqodlarga bo'linadi. Agar diniy ziyorat diniy muqaddas narsa va joylarga ibodat qilishni bildirsa, dunyoviy ziyorat tabiiy va hayotiy narsalar (zardushtiylilik ta'limotlarida olov, suv, yer, havo muqaddas hisoblangan) hamda muqaddas joylarga sajda qilish va ularni qadrlashda o'z ifodasini topadi.

Dunyoviy ziyorat komil inson tarbiyasi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan sayru sayohat turidir. "Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir" shiori ostida yoshlar o'rtasida tashkil etiladigan sayohatlar; "Xotira va qadrlash" bayramida "Motamsaro ona" haykaliga tashrif buyurib gulchambar qo'yish va ta'zim qilish; Toshkentdagi qatag'on qurbonlariga bag'ishlangan "Shahidlar xotirasi majmuasi"ni ziyorat qilish; Samarqandga tashrif buyurib, Amir Temir bobomizning qabrlarini ziyorat qilish; Yurtboshimiz rahnamoligida Buxoroyi Sharifda yuzdan ortiq gektar maydonda saf rostlagan va 2010 yil 30 avgustda rasmiy ochilgan "Ko'hna va boqiy Buxoro madaniy markazi" ga respublikamiz yoshlarining tashrifi, bizning fikrimizcha, O'zbekistondagi dunyoviy ziyorat maskanlarning yorqin namunalariga kiradi.

Shu yerda "safari", "sayohat" va "ziyosat" atamalarining o'zaro mutanosibligini aniqlab olish o'rinli bo'ladi. "Safari" - sayohat va ziyosat atamalariga nisbatan ancha keng atama hisoblanadi. U xizmat ishlari bo'yicha safari, sayohat safari va insonni ichki dunyosidagi safari turlariga bo'linadi. Xizmat ishlari bo'yicha safari sayohat va ziyosat faoliyat turi hisoblanmasdan, shunchaki inson ish faoliyatining tarkibiy qismidir. Insonni ichki dunyosidagi safari ichki ziyosatning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Sayohat safari esa safarning uchdan bir qismidir.

Sayohat ziyosatga nisbatan kengroq atamadir. Ziyosat sayohatning o'nlab turidan faqat bir turi hisoblanadi. Ichki ziyosat sayohatga taalluqli bo'lmasdan, faqat tashqi ziyosat uning tarkibiy qismiga kiradi. Ziyosatni sayohatdan quyidagi tafovutlarini qayd qilish mumkin:

- agar sayohatga barcha sayru tomosha turlari kirs, ziyosatga faqat diniy rasm-rusumlarni bajarish bilan birga amalga oshiradigan safari turi kiradi.

- sayohatning obykti sifatida barcha obidalar hisoblansa, ziyosatning obyktiga faqat muqaddaslikka xos bo'lgan narsa va/yoki joylar kiradi.

- sayohatning subyekti sifatida barcha kishilar taalluqli bo'lsa, ziyosatning subyekti diniy va dunyoviy e'tiqodli kishilar tashkil qiladi.

Zamonaviy ziyosat turizm nafaqat iqtisodiyot, balki uning ijtimoiy tarkibiy qismi, jumladan, ijtimoiy sohani rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash, madaniy salohiyatni saqlash va rivojlantirish, bo'sh vaqtdan oqilona foydalanish va takror ishlab chiqarish salohiyatini tiklashga ham

faol ta'sir ko'rsatadi. Mamlakat va uning hududi turizm biznesini yuritish va yashash uchun yanada jalb etuvchan bo'lib kelmoqda.

Ziyorat turizmning iqtisodiy samaradorligi shuni taqozo etadiki, mamlakatda turizm ijtimoiy-iqtisodiy kompleksning boshqa tarmoqlari bilan ketma-ket va birgalikda rivojlanishi kerak. Ta'kidlash lozimki, turizmning mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta'siri turizm har tomonlama rivojlanib, boshqa tarmoqlar rivojiga zarar yetkazmagan holdagina yuz beradi. Dinamikada kuzatiladigan turizmni rivojlantirish jarayoni, uning doimiy sifat o'zgarishlari, turizmga yangi texnologiyalarning kirib kelishi bilan bog'liq bo'lgan turlarning ko'payishi har bir mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi uchun ushbu murakkab va muhim tizimning boshqaruv usullarini doimiy yangilash va takomillashtirishni talab qiladi.

O'zbekistonda milliy qonunchilikka muvofiq joylashtirish vositalari, transport, umumiy ovqatlanish obektlari va ko'ngilochar, ma'rifiy, ishbilarmonlik, davolash-sog'lomlashtirish, jismoniy tarbiya-sport hamda boshqa maqsadga mo'ljallangan obyektlar, ziyorat turizm faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar, ekskursiya xizmatlarini ko'rsatuvchi tashkilotlar majmuasi, shuningdek ekskursiya yetakchilarining, gidlar (gid-tarjimonlar) hamda yo'riqchi-yo'l boshlovchilar xizmatlari majmuasi turizm industriyasidir. Shu sababli ziyorat turizmni tadqiq qilishda turizm salohiyati va turizm resursi tushunchalariga katta ahamiyat berishimiz lozim bo'ladi.

Yuqoridagilarning barchasi ko'rsatadiki, bugungi kunga qadar salohiyat mohiyatining iqtisodiy talqiniga cheklangan yondashuv hukmronlik qiladi, chunki birinchisi salohiyatni resurslar majmuasi sifatida, ikkinchisi iqtisodiy tizimning mahsulot ishlab chiqarish qobiliyati sifatida, uchinchisi ishlab chiqarish kuchlarining muayyan samaraga erishish qobiliyati sifatida ta'riflaydi. Bu ikki tushunchaning o'ziga xos xususiyatlari 1-jadvalda berilgan.

1-jadval

“Salohiyat” va “resurs” tushunchalari o'rtasidagi farq ⁴

“Salohiyat” atamasi	“Resurs” atamasi
U birlik shaklda qo'llanadi, lekin har doim xususiyatlar, narsalar, hodisalar majmuasini nazarda tutadi	U butun salohiyatning bir qismi bo'lib, ma'lum hududni tashkil etadi
U hal qilishi uchun belgilangan muayyan vazifa bilan juda aniq bog'liq. Masalan, hududning o'rmon resurslaridan turistlar ham, sanoat ham foydalanishi mumkin. Masalan, hududning turizm-rekreatsiya salohiyati haqida gapirganda va bunda uning o'rmon tarkibiy qismini baholashda birdaniga aynan shu xususiyatlar va ulardan turizm foydalanish uchun zarur jihatlar nazarda tutiladi.	Uning maqsadi nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi, lekin uning ma'lum bir foydalanuvchi bilan munosabati u qadar aniqlanmagan.
Biror-bir obyektning salohiyatini ta'riflashda, odatda, bu salohiyatni boshqa obyekt salohiyati bilan taqqoslash yo'li bilan baholash ham nazarda tutiladi	Resurslarni baholashda ularning ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonidagi qiymatini aniqlash tushuniladi

Shunday qilib, “turizm resursi” tushunchasiga nisbatan “turizm salohiyati” tushunchasi kengroq va umumlashgan tushuncha sifatida namoyon bo'ladi. Albatta, farqlarga qaramay, bu ikki

⁴Manba: muallif tomonidan tuzilgan.

tushunchani yetarli darajada erkinlik bilan qo‘llash mumkin, chunki kontekst baribir ularning mazmuniga nima kiritilganini tushunish imkonini beradi.

Ziyorat turizmida “turizm salohiyati” ta’rifiga tadqiqotchi olimlarning yondashuvlari va nuqtai nazarlarini tahlil qilgan holda shunday xulosa qilish mumkinki, tadqiqotchi mualliflar asosan ikkinchi resurs tushunchasiga amal qiladilar, unga ko‘ra salohiyat ma’lum maqsadlarga erishish uchun zarur bo‘lgan o‘zaro bog‘liq resurslar majmuasidir.


Ziyorat turizm salohiyatini shakllantirish va rivojlantirish nuqtai nazaridan o‘rganishdagi asosiy muammo uning barcha elementlari bir vaqtda va birgalikda faoliyat yuritishidir. Ya’ni turizm salohiyati murakkab va dinamik tizim hisoblanadi, chunki aynan salohiyatning alohida elementlari o‘rtasidagi munosabatlar ishlab chiqarish xususiyatlari va faoliyat yuritish qonuniyatlarini modifikatsiya qiladi, shu tariqa salohiyatning umuman yangi sifat holatiga, ya’ni yuqori tartibli tizimga o‘tishga yordam beradi.

Yuqoridagi mulohazaga muvofiq, aytish mumkinki, turizm salohiyati o‘zaro bog‘langan va o‘zaro aloqadagi turli elementlardan tashkil topgan, turizm mahsulotini yaratish va taqdim etish jarayonida, kerakli miqdor va sifat hamda bozor tomonidan belgilangan muddatlarda turli vazifalarni bajaruvchi murakkab, uyushgan, dinamik tizimdir.

Shunday qilib, ziyorat turizm salohiyati tizim hisoblanadi, shunga ko‘ra u har qanday tizimning yaxlitligi, elementlarning kutilmaganda paydo bo‘lishi va bo‘linuvchanligi singari xususiyatlarga ega. Shu bilan birga turizm salohiyati maxsus, faqat o‘ziga xos fundamental xususiyatlarga ham ega (1-rasm).

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda, natijalovchi konsepsiya qoidalarini birlashtiradigan “turizm salohiyati” atamasining quyidagi ta’rifini to‘g‘ri deb hisoblaymiz. Turizm salohiyati – turizm industriyasini rivojlantirish va uning faoliyat yuritishidan ijobiy ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishish va ularning turizm jozibadorligi darajasini oshirish imkoniyatlari mavjudligi; turizm salohiyati – turizm faoliyatini tashkil etish maqsadida mavjud resurslar yig‘indisi.

Tuzilmaviy jihatdan turizm salohiyati o‘zaro bog‘langan salohiyatlar: tabiiy-resursli, tarixiy-madaniy, iqtisodiy va ijtimoiy salohiyatlar yig‘indisi sifatida namoyon etilgan. Bir qator mualliflarning tadqiqotlarida ifodalangan ilmiy yondashuvni tahlil qilib, muayyan “alohida” salohiyatlar bloklari va ularning ta’riflarini shakllantirdik.



1-rasm. Ziyorat turizm salohiyatining o‘ziga xos fundamental xususiyatlari ⁵

⁵Manba: muallif tomonidan tuzilgan.

Xulosa va takliflar

1. Ziyorat turizm salohiyatining umumiy tarkibini o'rganishda uni tizim sifatida ko'rib chiqish muhim jihat hisoblanadi. Ziyorat turizm salohiyatining umumiy tarkibiy qismi sifatida tizimli yondashuv nuqtai nazaridan turizm obyekti (turist) subyekti va o'zgaruvchan xususiyatga ega ehtiyojlarning turizm salohiyatini shakllantiradi, ziyorat turizm subyektlari esa obyektiv xususiyatga ega imkoniyatlarning umumiy turizm salohiyatini shakllantirish uchun asosdir.

2. Ziyorat turizm salohiyati – turizm industriyasini rivojlantirish va uning faoliyatidan ijobiy ijtimoiy-iqtisodiy samara olish va turizmning jalb etuvchanlik darajasini oshirish imkonlari mavjudligidir; turizm salohiyati – ziyorat turizm faoliyatini tashkil qilish maqsadida tashkilot tasarrufida bo'lgan resurslar yig'indisi.

3. Muayyan hududda ziyorat turizmni rivojlantirish shartlari va uning imkoniyatlarini o'rganish bilan shug'ullanuvchi mualliflarning ilmiy qarashlarini o'rganish quyidagi asosiy shart-sharoitlar bloklarini aniqlash imkonini berdi: ijtimoiy-geografik vaziyat; geosiyosiy vaziyat; turizm-rekreatsion faoliyatini amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy shartlari; atrof-muhit sharoitlari.

Shuning uchun ziyorat turizm salohiyatini samarali shakllantirish, rivojlantirish va amalga oshirish, birinchidan, uning resurslar tarkibiy qismini, ikkinchidan, resurslarning hududiy birikmasini, uchinchidan, ularni amalga oshirish shartlarini har tomonlama tahlil qilish bilan o'ringa ega bo'lishi mumkin.

4. Ziyorat tuzulmaviy jihatdan turizm salohiyati o'zaro bog'liq tabiiy-resurs, tarixiy-madaniy, iqtisodiy va ijtimoiy salohiyatlar yig'indisini ifodalaydi.

5. Ziyorat turizmning faoliyati va rivojlanishi salohiyatlarining amalga oshirilgan tahlili turizmni boshqarish predmetini ajratib ko'rsatishga asos bo'ladi. Fikrimizcha, turizmni boshqarish predmeti resurslarning xossalari, ular orasidagi bog'lanishlar, ulardan foydalanish yo'nalishlari hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. UNWTO Tourism Highlights 2017 Edition.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-sonli farmoni.

3. Eshtayev A.A. O'zbekistonning turizm salohiyati va uni rivojlantirish istiqbollari. (Monografiya) – Samarqand: “Ipak yo'li” Turizm va madaniy meros xalqaro universiteti nashriyoti, 2023. 8 bet;

4. Abduvohidov A.M., Umirova D.S., Abriyev Z.S. Turizm rivojlanishini prognozlash. O'quv qo'llanma. – T.:TDIU, 2019. 43 bet;

5. Alimova M.T. Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari (Samarqand viloyati misolida): iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – S.: SamISI, 2017. - 265 b.;

6. Гольшева Е.В. Совершенствование организации и механизма регулирования развития туризма в рыночных условиях: Автореф. дис. ... канд. экон. наук. – Т., 2012. – 25 с.;

7. Ф.М., Жалолитдинова Х., Нурматова С. Туризм в Узбекистане после COVID-19. //Научно-электронный журнал «Экономические и инновационные технологии», 2021. - № 1 (январь-февраль). – С. 333-341;

8. Safarova N.N. Iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga turizm sohasi ta'sirini baholash usullarini takomillashtirish: i.f.d.. dokt. dissertatsiya avtoref. – Tashkent, 2018;

9. Тураев Б.Х. Развитие организационно-экономических механизмов управления региональным туризмом: Автореф... докт. экон. наук. – Т., 2011. – 52 с.;

10. Hamidov O.H. O'zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirishni boshqarish mexanizmini takomillashtirish. Iqt. fan. dokt. (DSc) diss... avtoreferati. – Samarqand, 2017.-7 b.